

## MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “AL-MUFRAD VA-L-MUALLAF” NOMLI RISOLASI HAQIDA

**Ismoilova Munira Mirzabek qizi**

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 1-kurs magistranti

[muniraismoilova2000@gamil.com](mailto:muniraismoilova2000@gamil.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Mahmud Zamaxshariyning “al-Mufrad va-l-muallaf” nomli arab tili grammatikasiga oid asari haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ushbu asarning qo‘lyozma nusxalari, uning tarkibi, undagi ma’lumotlar haqida mulohazalar yuritilgan*

**Kalit so‘zlar:** nahv, mufrad, muallaf, murakkabun mufid, murakkabun g‘oyru mufid.

### **ABSTRACT**

*This article provides information on the book of Zamakhshari named “al-Mufrad va-l-muallaf”. The article contains reflections on manuscript copies of the work and its composition.*

**Key words:** Nahw (arabic grammer), mufrad, muallaf, murakkab mufid, murakkab goyru mufid.

### **KIRISH**

Ma’lumki, ajdodlarimiz o‘zlarining nodir ilmiy me’roslari bilan jahon tamadduniga o‘zlarining o‘chmas hissalarini qo‘sghanlar. Xususan, arab tili va uning nazariy asoslariga oid asarlari orqali arab tili rivojida ulkan iz qoldirganlar. Albatta, Mahmud Zamaxshariyning arab tiliga oid asarlari bu ilmiy faoliyatning eng avvalida zikr qilinadi.

### **ASOSIY QISM**

Bugungi kunda Zamaxshariyning arab tili va adabiyotiga doir asarlar soni 20dan ortiq hisoblanadi. Uning aynan arab tili grammatikasininahv ya’ni sintaksis qismiga oid asarlaridan 7tasi bugungi kunda fanga ma’lum.<sup>1</sup> Ular quyidagilar:

- 1) امالي في فن كل فن - “Nahvda imlo” . Ba’zi olimlar bu asarni “Barcha fanlarda imlo” deb zikr qilishgan.

---

<sup>1</sup> Imran Arslan, ez-Zamahşerî ve el-unmûzec adlı eseri, s.50.

2) – المفصل في صنعة الإعراب “E’rob san’atida mufassal” . Zamaxshariyning eng mashhur asari bo‘lib, uni المفصل في علم النحو ، المفصل في علم اللغة nomlari bilan ham atashgan.

3) – المحاجة بالمسائل النحوية “Nahv masalalarini dalillash” . Ba’zi manbalarda shaklida ham kelgan. Asarda nahv mavzulari savol-javob shaklida sharhlangan. Ilmuddin Saxoviy ushbu asarga sharh yozgandan so‘ng, ushbu asar nahv ilmidagi eng muhim asarlardan ekanligini aytadi.<sup>1</sup>

4) – رسالة في كلمة الشهادة “Kalimayi shahodat haqida risola”. Tavhid kalimasining nahviy tahlili yoritilgan risola hisoblanadi.

5) – صحيح العربية – صميم العربية “Sof arab tili”. Hidoyatu-l-orifin asarida deb aytilgan. Manbalarda ushbu asar haqida ma’lumot bo‘lsada, bugungi kunda uning qo‘lyozmasi topilmagan.

6) – الانموذج في النحو “Nahvdan na’munalar”. Nahvgaga doir kichik risola

7) – المفرد والمؤلف “So‘z va birikma”. Nahvgaga ya’ni sintaksisiga doir mavzular so‘z va birikma shaklida sharhlangan asar.<sup>2</sup>

Zamaxshariyning arab tili sintaksisiga oid asarlari orasida “al-Mufrad va-l-muallaf” nomli risolasi alohida o‘rinni egallaydi.

Asarning bugungi kunda dunyo fondalarida 5ta nusxasi fanga ma’lum bo‘lib, ular quyidagilardir:

1. Ko‘prulu nusxasi – bu asarning asl qo‘lyozmasi hisoblanadi.

Ushbu nusxa Istanbuldagi Ko‘prulu kutubxonasi fondida saqlanadi. Risola majmua kitob ichidan joy olgan bo‘lib, ushbu risola joylashgan majmua fondda 1/1393 raqami ostida saqlanadi. Majmua 13ta risoladan iborat. “Al-Mufrad va-l-muallaf” asari majmuuning boshidan joy olgan. Asar majmuuning 1-sahifasida boshlanib, 9-sahifasida tugaydi. Satrlar soni 17tani tashkil qiladi. Har bir satrdagi so‘zlar soni o‘rtacha 11ta so‘zdan iborat. Asardagi mavzular qalin harflar bilan yozilgan

Ushbu qo‘lyozma asarning eng asl nusxasi hisoblanadi. Uning qiymati qadimiyligidadir. Ko‘prulu nusxasi Bag‘dodda hijriy 635-yil ( milodiy 1238-yil ) ko‘chirilgan. Qo‘lyozmani ko‘chirgan kotib Abu Is’hoq Ibrohim bin Yahyo bin Abi Hofiz al-Maknasiy bo‘lib, u nahv olimi hamda faqih bo‘lgan.

2. Eron nusxasi.

Asarning ushbu qo‘lyozma nusxasi Eron poytaxti Tehron shahridagi “Majlis shuro” kutubxonasi fondida saqlanadi. “Al-Mufrad va-l-muallaf” risolasi 4ta asarni o‘z ichiga olgan, 5296 raqami ostidagi majmua ichidan joy olgan. Ushbu risola majmuuda ikkinchi bo‘lib kelgan, qo‘lyozmaning 6-sahifasida boshlanib, 13-sahifasida tugaydi.

<sup>1</sup> Kâtip Çelebi, Keşfu’z-Zunûn ..., c.2, s.1607-1608.

<sup>2</sup> Imran Arslan, ez-Zamâhîrî ve el-unmûzec adlı eseri, s.51.

Satrlar soni 9tani tashkil qiladi. Har bir sahifadagi o‘rtacha so‘zlar soni 11ta. Mavzular qalin harflar bilan yozilgan . Qo‘lyozmani yozishda qora va qizil siyohdan foydalanilgan. Qo‘lyozmaning birinchi va ikkinchi sahifalarida ko‘plab izohlar mavjud bo‘lib, ular satrlar orasiga yozib ketilgan. Qo‘lyozmaning har bir sahifasida poygir mavjud.

Eron nusxasi hijriy 726-yil – milodiy 1325-yili Muhammad bin Sulaymon bin Bahromvayh tomonidan ko‘chirilgan.

### 3. Misr nusxasi

Ushbu qo‘lyozma nusxa Misr Qohira shahri “Daru-l-kutubu-l-misriy” kutubxonasi fondida saqlanmoqda. U 5ta risoladan iborat bo‘lgan 1592 raqam ostida saqlanayotgan majmua tarkibiga kiradi. Ushbu risola majmuuning avvalidan joy olgan. Asar qo‘lyozmaning 1-sahifasida boshlanib 5-sahifasida tugaydi.

Qo‘lyozmadagi yozuvlar aniq yaxshi yozilgan. Bir sahifadagi satrdagi sonlar soni 19tani tashkil qiladi. Bir satrdagi o‘rtacha o‘zlar soni esa 17tani tashkil qiladi. Asardagi mavzular qalin yozuvda yozilgan.

Ushbu qo‘lyozmani ko‘chirgan kotib Ahmad bin Muhammad Shams al-Xiyuqiy al-Xorazmiy hisoblanadi.

Ushbu nusxada kotib tomonidan yozilgan hoshiyalar, tuzatishlar, izohlar uchraydi.

### 4. Turkiya nusxasi

Ushbu nusxa Istanbuldagagi Esad Afandi kutubxonasida saqlanmoqda.

Qo‘lyozma 10ta risoladan iborat bo‘lgan 3\46 raqam ostida saqlanayotgan majmua ichidan o‘rin olgan. “Al-Mufrad va-l-muallaf” risolasi majmuada 4-o‘rinda keladi. Risola 6 sahifani tashkil qiladi. Asar 14-sahifada boshlanib, 21-sahifada yakunlanadi.

Qo‘lyozmadagi yozuvlar zarar ko‘rgan. Bir sahifadagi satrlar soni 21tani tashkil qiladi. Bir satrdagi o‘rtacha so‘zlar miqdori esa 9tani tashkil qiladi. Mavzular qizil siyoh bilan qalin harflar bilan berilgan.

Qo‘lyozma hijriy 1007-yil , milodiy 1579-yilda ko‘chirilgan. Asarni kotib Ahmad bin Abi Bakr as-Sanafiy al-Malikiy ko‘chirgan.<sup>1</sup>

### 5. Turkiya Laleli kutubxonasi nusxasi

Ushbu nusxa Istanbuldagagi Laleli kutubxonasi qo‘lyozmalar fondida saqlanadi.

Qo‘lyozma 3740 raqam ostidagi ” زاد ذي الطلب المعرفة الأدب ” ( “Zadu zi-t-tolabi-l-ma’rifati-l-adab” ) nomli majmuadan joy olgan bo‘lib, majmua 14ta risolani o‘z ichiga olgan. “Al-Mufrad va-l-muallaf” risolasi majmuuning boshida keladi.

<sup>1</sup> علي بن موسى بن محمد شبير، كتاب المفرد و المأثور للزمخشري دراسة و تحقيقا، جامعة الإمام محمد بن سعود الإسلامية، مجلة العلوم العربية، ص. ٢٠٩.

Qo‘lyozma 5 varoqdan iborat. Majmuaning 1-sahifasidan boshlanib, 5-sahifasida yakunlanadi. Yozushi nasxda yozilgan. Mavuzlar qizil siyoh bilan yozilgan. Qo‘lyozmani ko‘chirgan kotib noma’lum. Bosh sahifalarida ba’zi izoh va sharhlar mavjud.

Xorijda, xususan, arab mamlakatlarida ushbu risola yuzasidan ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan Iroqda profeesor Bahija Hasaniy tomonidan 1967-yilda ushbu asarning qo‘lyozma nusxalari tahqiq qilingan. 1990-yilda esa Saudiya Arabistonida professor Abdu-l-Halim Abdu-l-Basit al-Mursifiy tomonidan ushbu risola o‘rganildi.

2018-yilda esa Saudiya Arabistonida Imom Muhammad bin Saud al-Islamiy nomli universitetda professor Ali bin Muso bin Muahmmad Shabir tomonidan “al-Mufrad va-l-muallaf” asari tahqiq qilingan va uning ilmiy- tanqidiy matni ishlanib, Saudiyaning ilmiy jurnallaridan birida chop etilgan.

Ushbu asar arab tilining nahv (sintaksis) qismiga oid bo‘lib, unda arab tilining asosiy qoidlari qisqa usulda bayon etiladi. Muqaddimida Zamaxshariy ushbu asarning yozilishidan maqsadni quyidagicha izohlaydi: "تکشیف المادة العلمية، و تقریب ما یبعـد و تسهیل" - ما یصعـب "Ilmiy materiallarni to‘plash, uzoqni yaqin qilish, qiyinni oson qilish".

“Al-mufrad va-l-muallaf” asari 2qismdan iborat bo‘lib, dastlabki qismi “mufrad” ya’ni so‘zga bag‘ishlanadi. Ikkinchisi qismida esa “muallaf” ya’ni so‘zlardan iborat bo‘lgan birikmalar bayon qilinadi.

Asarning “mufrad qismi”da dastab so‘zlarni 3turga ism, fe’l va harf singari so‘z turkumlariga bo‘lib oladi. So‘ngra har bir so‘z turkumiga ta’rif berib, ularning turlari hamda holatlarini sharhlaydi. Ism so‘z turkumini (turdosh) اسم الجنس (atoqli), اسم المعنى (sifatlanmish) hamda (sifatlovchi) دال على حال (aniq) va (mavhum) turlarga bo‘ladi. So‘ngra ismning holatlari haqida yozadi va ismdagi kateroriyalarni bayon qiladi. Ular: البناء (oxirgi harakatining o‘zgarishi) va التكـير (ikkilik), الإظهـار (ko‘plik), الجمع (ismni o‘zini qo‘llash) va التعـريف (ism o‘rniga olmosh qo‘llash), الإضـمار (aniq holatdagi) va التـذكـير (noaniq holatdagi), التـأثـيث (muannas) kabi holatlaridir. Fe’l so‘z turkumiga kelsak Zamaxshariy unga ta’rif bergandan so‘ng, fe’llarni quyidagi turlarga ajratadi: متعدّ الامر (o’tkan zamon), المضارغ (hozirgi-kelasi zamon) va الماضي (o‘timli) hamda (haqiqiy) hamda غير متعد (o‘timsiz), اللام (yordamchi). Fe’lning katerogiralariga kelsak ularni quyidagi turlarga ajratadi: البناء للفاعـل (sifatdoshning aniq darajasiga o‘zgarmas) va البناء للمفعـول (sifatdoshning majhul darajasiga o‘zgarmas). Harf so‘z turkimini esa 2turga: عامل (omil bo‘luvchi) hamda غير عامل (omil bo‘lmaydigan) bo‘ladi.

Risolaning 2-qismi “muallaf” ya’ni so‘zlardan iborat birikmaga bag‘ishlanadi. So‘zlardan iborat bo‘lgan birikmalar 2xil bo‘lishi mumkin bo‘lib, ular: مرکب مفید

(Gap) va (so‘z birikmasi) hisoblanadi. Shu bilan birga bu birkmalarning tarkibiga qarab ularni 9turga bo‘ladi:

fe’l - المألف مع الفعل و الاسم - المألف مع اسمين  
 hamda ismdan tashkil topgan so‘z birikmasi, - المألف من الحرف و الاسم - harf va ismdan tashkil topgan birikma,  
 topgan birikma, - المألف من الحرف و الفعل - harf va fe’ldan tashkil topgan birikma, - المألف من المفرد و المألف - 2ta harfdan tashkil topgan birikma, - المألف مع المفرد - so‘z va so‘z birikmasidan iborat birikma, - المألف مع المألف - 2ta birikmadan tashkil topgan birikma, - المألف مع المألفين - so‘z hamda 2ta birikmadan iborat birikma, - المفرد مع المألفين - birikma hamda 2ta birikmadan tashkil topgan birikma.

Shuningdek, Zamaxshariy birikmalarning bu turlarini ham o‘z ichida turlarga bo‘ladi hamda ularga misollar keltiradi.

## XULOSA

Demak, Mahmud Zamaxshariyning “al-Mufrad va-l-muallaf” asari arab tilining sintaksis qismiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda grammatika so‘z hamda birikma jihatidan o‘rganilgan. Risola sodda tilda qisqa shaklda yozilgan bo‘lib, bugungi kunda arab tilini o‘rganuvchilarning arab tilini yanada oson o‘rganishlari uchun muhim manba bo‘la oladi.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

- علي بن موسى بن محمد شبيه، كتاب المفرد و المألف للزمخشري دراسة و تحقيقا، جامعة الإمام محمد بن سعود الإسلامية، مجلة العلوم العربية. ١٣٠ ص.
- ارتشف الضرب من لسان العرب، لابي حيان الأندلусي، تحقيق و شرح و دراسة الدكتور رجب عثمان محمد، مراجعة الدكتور رمضان عبد التواب، مكتبة الخانجي، القاهرة، الطبعة الأولى، ١٩٩٨ م.
- Arslan, ez-Zamahşeri ve el-unmüzec adlı eseri, Diyarbakır, 2018. 133s.
- Kâtip Celebi, Mustafa b. Abdullah el-Kostantînî, Keşfu’z-Zunûn ‘an Usâmi’l- Kutubi ve’l-Funûn, (Nşr. Muhammed Şerefuddîn Yaltekâyâ), Dâru İhyâi’t- Turasi’l-’Arabî, Beirut tsz.